

GEKSAMETILENTETRAMIN p-METOKSIFENILATSETATOXLORID SINTEZI

Ruzimurod Jo'rayev Sattorovich (jurayevorganikqdu-1992@mail.ru),
Toshkent kimyo-tehnologiya institute Shahrishabz filiali,

Azimjon Choriyev Uralovich

Qarshi Davlat Universiteti, Organik kimyo kafedrası dots., PhD

Eshqulov Bekzod Ravshan o'g'li

Toshkent kimyo-tehnologiya institute Shahrishabz filiali,

Kimyoiy texnologiya yunalishi 3-kurs talabasi.

Annotatsiya: 4-metoksifenilxloratsetatning turli aminlar bilan reaksiyalari nukleofil almashinish reaksiyasi bo'lib, bu reaksiyalar erituvchining suyuqash haroratida oddiy sharoitda borishi aniqlandi. Uchlamchi aminlarning reaksiyaga kirishish qobiyatini o'rjanish uchun uratropin tanlab olindi va uning 4-metoksifenilxloratsetatning 1:1 nisbatda reaksiya olib borildi va mahsulotlar ajratib olindi.

Kalit so'zlar: 4-metoksifenilxloratsetat, uratropin, nukleofil almashinish reaksiyasi, IQ spektr.


Ma'lumki, aminlar asosida olingen ko'pgina birikmalar kimyo sanoatida, tibbiyotda va qishloq xo'jaligida keng ko'lamda ishlataladi. Shuning uchun aminlar asosida olib borilayotgan organik sintezlar ahamiyatiligi jihatidan oldingi o'rnlarda turadi. Jumladan, ulardan farmasevtikada dori vositalari, polimerlar uchun stabilizatorlar, qishloq xo'jaligida ekinlarni himoya qilishda pestitsid xossasiga ega bo'lgan preparatlar, organogelatorlar va suyuq kristallar, gen transkripsiyanining yangi ingibitorlari, asimetrik kataliz uchun ligandlar va korroziya ingibitorlari sintezi jarayonlarida asosiy reagent sifatida foydalaniлади.

Aminoguruhga ega bo'lgan barcha birikmalar pikrin kislota ta'sirida pikratlar (tuzlar) - suvda kam eriydigan rangli birikmalar hosil qiladi. Eruvchanligi yaxshi bo'lgan pikratlar hosil bo'lganda ham ular eritmasining rangi aminlarnikidan ko'ra yorqinroq bo'ladi. Misol tariqasida aminlarning asosliligini aniqlash uchun 2,4-dinitrofenolning aminlar bilan ta'sirlashishi turli erituvchilar ta'sirida boradi, uchlamchi aminlar xloroform yoki benzoil xlorid ta'sirida, ikkilamchi aminlar esa uglevodorodlar yoki dioksan ta'sirida, birlamchi aminlar esa etilatsetat muhtida reaksiya sodir bo'lishi kuzatilgan. Aminlarning efirdagi eritmalarini orqali HCl gazi o'tkazilganda ularning gidroxloridlari kristall tuz holida cho'kmaga tushadi.


Yuqoridagi ma'lumotlarga asoslanib shuni takidlash mumkinki, aminning asosliligi qancha yuqori bo'lsa, ularning azot atomida joylashdan vodorod atomi nukleofil almashinish reaksiyasiga osonroq reaksiyaga kirishadi. Aminlarning mana shu xossasidan foydalangan holda p-metoksifenilxloratsetatning turli aminlar bilan nukleofil almashinish reaksiyasi o'rjanildi. Bunda ikkilamchi, uchlamchi, to'rtlamchi aminlar va etanolamin kabi yuqori faoliyka ega bo'lgan birikmalar bilan reaksiyalarning borishini va natijada xosil bo'lgan birikmalarning xossalalarini taxhil qilishni maqsad qilindi.

Geksametilentetramin p-metoksifenilatsetatoxlorid sintezi. Yuqoridagiga o'xshash jihozlangan tubi dumaloq kolbaga 2 g p-metoksifenilxloratsetat, 1.4 g geksametilentetramin solinib, 10 ml xloroformda eritildi. Reaksiya qizdirilganda jadal borib, reaksion aralashma o'z-o'zidan davom etishi kuzatildi. Bunda qizdirish to'xtatildi. Reaksiya 10 minut davom etdi va to'xtadi. Reaksiyon aralashma xona haroratigacha sovutildi va xloroform alohida idishga quyib olindi. $T_{\text{suyuq}} = 110^\circ\text{S}$. Mahsulot unumi 2.9 g, 86% ga teng.


p-Metoksifenilxloratsetatning aminlar bilan reaksiyalarini tadqiq etish maqsadida ularning turli birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi aminlar bilan reaksiyalari olib borildi:



$R = R^1 = C_2H_5$, $R = H$, $R^1 = (CH_3)_3C, C_6H_5, 2-CH_3C_6H_4, 3-CH_3C_6H_4, 4-CH_3C_6H_4$



p-Metoksifenilatsetat geksametilentetramin xlorid sintezini amalgal oshirishda p-metoksifenilxloratsetat, geksametilentetramin va erituvchi sifatida geptandan foydalanildi. Bunda reaksiya juda ham jadal borib 3 soat davom etdi va dastlabki moddalar 1:1 mol nisbatda olinganligi sababli reaksiya mahsuloti sifatida to'rtlamchi tuz – p-metoksifenilatsetat geksametilentetramin xlorid 86% unum bilan xosil bo'ldi. Xosil bo'lgan to'rtlamchi tuzning suyuqlanish temperaturasi 91°C bo'lib, gigroskopligi sababli ochiq havoda qoldirliganda suyuqlanib qoladi. Reaksiya quyidagi sxema bo'yicha boradi:




Sintez jarayonida xosil bo'lgan moddalarning, haqiqatdan ham xosil bo'lganligiga ishonch xosil qilish uchun fizik-kimyoviy usullarga murojat qilindi. Dastlabki ishchi moddaning va reaksiya natijasida olinganayrim moddalarning IQ spektrlari olindi. Spektr natijalari esa olingan moddalarning sturkturalarini tasdiqladi.

Substrat sifatida tanlab olingan p-metoksifenilxlorasetatning turli aminlar, xususan ikkilamchi, uchlamchi va to'rtlamchi aminlar bilan o'zaro nukleofil almashinish reaksiyalari natijasida xosil bo'lgan moddalarning IQ spektrida benzol halqasi bo'lganligi tufayli aromatik sestimadagi C-H bog'ining valent tebranishi ($\nu_{C-H_{arom}}$) $2900-3100\text{ cm}^{-1}$ kuchsiz sohada, aromatik halqaning C=C bog'ining valent tebranishi $1500-1600\text{ cm}^{-1}$ o'rta sohada va C-H bog'ining deformatsion tebranishi ($\delta_{C-H_{arom}}$) $900-700\text{ cm}^{-1}$ kuchsiz sohada nur yutilishi kuzatildi. $1500-1600\text{ cm}^{-1}$ o'tish sihasida esa aromatik halqa skeletining tebranishida yutulish chiziqlari paydo bo'ldi.

Sintez qilingan moddalarning karbonil guruhini valent tebranishi ($\nu_{C=O}$) $1790-1720\text{ cm}^{-1}$ intensivligi juda kuchli sohada nur yutulish chiziqlarini yoqqol kurish mumkin. Efir bog'ining valent tebranishlari ($\nu_{C=O-C}$) $1240-1190\text{ cm}^{-1}$, intensivligi o'rta sohada yutilish chiziqlari xosil bo'ldi. Aromatik halqadagi ikkita yonma-yon joylashgan CH guruhlari (1,4-almashinishlar) $1125-1090\text{ cm}^{-1}$ kuchsiz sohada tebranish chiziqini beradi.

Metilen guruhidagi C-H bog'ining deformatsion tebranishi (δ_{C-H}) $1480-1490\text{ cm}^{-1}$ intensiv sohada nur yutulish kuzatildi. Olingan birikmalarda monoxlor almashgan alkil- va arilgalogenidlarda C-Cl bog'ining valent tebranish sohasi aniqlanmaganligi, xosil bo'lgan moddalarning barchasida $1250-$

1180 cm^{-1} o'rtacha yutulish sohasida C-N guruhga xos bo'lgan valent tebranishni xosil bo'lganligi, shuningdek uchlamchi aminlar bilan xosil bo'lgan birikmaning IQ spektrida $-\text{N}^+-\text{CH}_2-$ guruhga xos bo'lgan $1440\text{-}1400\text{ cm}^{-1}$ yutulish sohasining kuzatilishi yangi moddalarining hsil bo'lganligini tasdiqladi.



p-Metoksifenilsetat geksametilentetramin xloridning IQ spektri

p-Metoksifenilsetat geksametilentetramin xloridning IQ spektri ma'lumotlari: 3195.51, 3003.38 cm^{-1} kuchsiz yutulish sohasida raomatik halqadagi C-H guruhga xos bo'lgan valent tebranish; 2953.51 cm^{-1} kuchsiz yutulish sohasida CH_2 guruhga xos bo'lgan asemetrik valent tebranishlar; 1766.16 cm^{-1} juda kuchli yutulish sohasida kislota xosilalariga xos C=O guruhning tebranishi; 1441.70 cm^{-1} yutulish sohasida CH_2-N^+ guruhga xos bo'lgan deformatsion tebranishlar; 1143.07, 1101.95 cm^{-1} o'rtacha kuchsiz yutulish sohasida asetallarning C-O guruhiga xos tebranishlar; 1183.14 cm^{-1} yutulish sohasida ArNR_2 yoki $(\text{RCH}_2)_3\text{N}$ ning C-N guruhiga xos bo'lgan valent tebranishlar kuzatildi.

Adabiyotlar

- El Sayed H. El Ashry, El Sayed H. El Tamany, Mohy El Din Abdel Fattah, Mohamed R.E.Aly, Ahmed T.A. Boraei and Axel Duerkop "A new synthetic access to 2-N-(glycosyl)thiosemicarbazides from 3-N-(glycosyl)oxadiazolinethiones and the regioselectivity of the glycosylation of their oxadiazolinethione precursors" Beilstein journal of organic chemistry 2013, 9, 135-146.
- Yunyun Liu, Yi Zhang, Xiaoji Cao and Jie-Ping Wan "Synthesis of β -arylated alkylamides via Pd-catalyzed one-pot installation of a directing group and $\text{C}(\text{sp}^3)\text{-H}$ arylation" Beilstein journal of organic chemistry 2016, 12, 1122-1126.
- Jaroslav Padovet, Marcus G. Schrems, Robin Scheil and Andreas Pfaltz "NeoPHOX-a Structurally tunable ligand system for asymmetric catalysis" Beilstein journal of organic chemistry 2016, 12, 1185-1195.
- Eshmatova N.B., Akbarov Kh.I. Quantitive value of effectivity of nitrogen and phosphor-containing ingibitors by the results electrochemical and gravimetrical investigations // Austrian Journal of Technical and Natural Sciences. 2016. №3-4. -P. 132-135.
- Abdushukurov A.K. Chloroacetylation of toluene in presence of small amomts of catalysts // Kafkas universitesi FENEDEBJAT Fakultesi kimya bolumu, XVIII. ULUSAL kimya kongresi, bildiri ozetleri, KARS. 5-9 Temmuz-2004. -965 s.